



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ФАРҒОНА ПОЛИТЕХНИКА ИНСТИТУТИ**

**Ижтимоий фанлар кафедраси  
ДИННИНГ МОҲИЯТИ, ТУЗИЛИШ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ**




**аиерлади: Н.Холмирзаев,  
Ж,Холмирзаева**

**Фарғона 2019**



## 2-МАВЗУ. ДИННИНГ МОХИЯТИ, ТУЗИЛИШИ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ



## Режа:

- Динга берилган таърифлар. Дин - ижтимоий онг шакли, муайян турмуш ва тафаккур тарзи, хамда маънавий қадрият сифатида.
- **Диннинг структураси ва таснифи.**
- Диннинг ижтимоий функциялари.
- Диннинг жамият ва шахс маънавияти юксалишидаги, комил инсонни тарбиялашдаги аҳамияти.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек «Агар мендан нега миллий қадриятларимиз шунча замонлар оша безавол яшаб келаяпти, деб сўрашса, бу - аввало муқаддас динимиз ҳисобидан, деб жавоб берган бўлур эдим. Шу заминда ўтган неча-неча авлодлар диний эътиқодни юракда сақламаса, ислом фалсафасининг ривожлантириб келмаса, биз бебаҳо ва бетакрор маънавий-руҳий меросдан маҳрум бўлиб қолардик. Токи ҳар бир ватандошимиз, айниқса, ёшлар фақат ислом дини тўғрисида эмас, умуман, дунёдаги мавжуд динлар, уларнинг тарихи, моҳияти тўғрисида тўлиқ тасаввурга эга бўлсин. Ижтимоий соҳага оид дарсларда ёшларга дин билан дунёвий ҳаёт масалаларини, бу икки тушунчанинг бир-бирига таъсирини, улар ўртасидаги мўътадил муносабат бўлиши зарурлигини очиқ бериш керак».



**Ибтидоий дин  
шаклларида  
тортиб то уруғ,  
қабила ва миллий  
динларгача, уларда  
жахон динларининг  
пайдо бўлиши**



**ва ривожланишининг ижтимоий, гносеологик (назарий  
билиш)**

**ва психологик**

**илдизлари**

**мавжуддир. Ана**

**шуларни ҳар**


**томонлама**

**тарихий далиллар**

**асосида илмий**

**таҳлил қилиш**

**мазкур курснинг вазифасидир.**



**Жамият шаклланишининг дастлабки даврларида пайдо бўлган дин халқлар ҳаёти билан боғлиқ бўлган ҳолда ривожланган, мослашган, секин-аста диний тизимни вужудга келтирган. Натижада маълум ижтимоий - сиёсий ва маданий - ахлоқий вазифаларни бажаришни ўз зиммасига олган. Бундай функциялар жамият тараққиётининг юқори босқичларида айниқса яққол кўзга ташланади.**

**Бу ўринда диннинг, айниқса исломнинг Марказий Осиё халқлари ҳаётида тутган ўрни, вазифалари, фан ва маданият билан ўзаро таъсири хусусида фикр юритиш ўринлидир. Диннинг жамиятда бажарадиган ижтимоий, маънавий, руҳий вазифалари қуйидагилардан иборат.**

## Биринчидан

ҳар қандай дин ўз хомийлари учун тулдирувчи, овутувчи (**компенсаторлик**) вазифасини бажаради. Масалан, инсонда диний эҳтиёж хосил бўлишини олиб қарайлик. У ўз ҳаёти, турмуш тарзи, табиат ва жамият билан бўлган муносабатлари жараёнида шахсий ва ижтимоий эҳтиёж, мақсадларига етишиши қийин, иложсиз бўлиб кўринганда бундай маънавий - руҳий эҳтиёж вужудга келган. Чунки инсон ҳаётида қувончли ва ташвишли онларда, орзулар рўёбга чиқиши иложсиз бўлган пайтда инсониятнинг динга эҳтиёжи ортаборган жамият бўлиб яшаш талабларида бошланган ва дин бу ўринда маънавий - руҳий эҳтиёжни кондирувчи, тасалли берувчилик вазифасини бажаради.

## Иккинчидан

динлар ўз таълимот тизимини вужудга келтириб, унга эътиқод қилувчи шахс ва жамоани шу таълимот доирасида сақлашга ҳаракат қилади. Бунининг бирлаштирувчилик (интегративлик) функцияси дейилади.

Бунга дин муайян ижтимоий, этник ва маънавий ҳаётнинг ўз таъсири доирасида бўлишни кўзда тутди. Масалан, ислом ўтмишда Марказий Осиё халқларининг ижтимоий ҳаётига, ахлоқий муносабатларига, хаттоки адабиёт ва санъатига ўз таъсирини кўрсатган.

## Учинчидан

дин диндорлар ҳаётини тартибга солиш, назорат қилиш (**регулятивлик**) функциясини бажаради. Ҳар қандай динларнинг маълум урф - одат, маросим ва байрамлари бўлиб, уларни ўз вақтида, диний таълим ва талаб асосида бажарилиши шарт қилиб куйилади.

# Туртинчидан

дин диндорларнинг бирлигини, жамият билан шахснинг ўзаро алоқасини таъминловчи хусусият - **алоқа боғлашлик** вазифасига ҳам эгадир. Бунда конкрет бир динга

эътиқод қилувчи

киши шу диндаги


бошқа кишилар билан боғлиқ бўлиши, урф - одат ва ибодатларни жамоа бўлиб адо этиш кўзда тутилади. Черков, мачит ва диний ташкилотлар диннинг бу функциясини амалга оширишга кумаклашади, айни пайитда, бу ҳолатни назорат қилади.

Булардан ташқари ҳар қандай дин ва диний тушунчалар фалсафий, назарий жиҳатлари бўлиб, инсоннинг яшашдан мақсади, ҳаётининг мазмуни, дорулфано, дорулбако - дунё ҳақидаги масалаларга ўз муносабатларини билдиришдан иборат. Динлар тарихи сиёсий функцияга ҳам эга бўлганлар, ҳозир деярли барча динлар бундай функцияни бажармайди ёки бу функция сезиларли эмас. Ҳар қандай диннинг маълум тарихий шароитда бажарадиган функциялари йиғиндиси унинг ижтимоий вазифасини белгилайди. Диннинг ижтимоий ҳаётга таъсири ҳамма вақт ҳам бир хил бўлган эмас. У ижтимоий тузумга, шароитга қараб сезиларли даражада ўзгариб боради


«Диншунослик асослари»  
курси диннинг пайдо бўлиши  
ва ривожланиш тарихини,  
унинг таълимотини,  
вужудга келиши ва  
шаклланишини ўрганувчи  
фандир. Бу фан жамият  
тараққиёти жараёнида дин билан  
ижтимоий ҳодисаларни - мафкура  
ижтимоий ҳодисаларни - мафкура ва ақидалар, урф  
- одат ва маросимлар, мачит ва диний  
ташкilotларнинг талаб ва тартибларини ўрганиш,  
таҳлил қилишни кўзда тутди.



Олимларнинг диншунослик соҳасидаги изланиши муҳим хулосалар чиқаришга олиб келган. Биринчидан, ҳар қандай дин ижтимоий ҳодиса ҳисобланиб, ижтимоий онг шаклларидан биридир; иккинчидан, диний тасаввур ва эътиқодлар жамият тараққиётининг муайян ижтимоий шароитлари таъсирида турли - туман шакл ва кўриниш касб этган; учинчидан, ибтидоий диний тасаввурлардан тортиб жаҳон динларигача бўлган динлар ривожланиши эволюциясини эътироф этиш диншунослик ҳақида тўғри илмий хулоса чиқариш имкониятини беради.



Юқоридаги  
фикрларга асосланиб,  
«Диншунослик асослари»  
курси предмети қуйидагича



таърифлаш мумкин: Диншунослик  
кишилик жамияти тарихий тараққиётининг  
муайян босқичида пайдо бўлган барча дин  
шаклларининг маънавий, ижтимоий,  
гносеологик ва психологик илдизларини,  
уларнинг таълимоти ва маросимчилиги,  
ижтимоий ҳаётдаги мавқеи ва ижтимоий  
функцияларини илмий жиҳатдан ўрганувчи  
фандир.

وَإِذَا طَلَقْتُمُ النِّسَاءَ فَلْيُنَّ أَجْلَهُنَّ فَأَمْسِكُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ أَوْ  
 سَرَّحُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ وَلَا تُمْسِكُوهُنَّ ضِرَارًا لِيُنْتَدُوا وَمَنْ يَفْعَلْ  
 ذَلِكَ فَقَدْ ظَلَمَ نَفْسَهُ وَلَا تَنْجِدُوا أَيْدِي اللَّهِ هُرُؤًا وَأَذْكُرُوا  
 يَعْمَتَ اللَّهُ عَلَيْكُمْ وَمَا أُنزِلَ عَلَيْكُمْ مِنَ الْكِتَابِ وَالْحِكْمَةِ  
 يَعِظُكُمْ بِهِ وَإِنَّمَا اللَّهُ يَعْلَمُ أَنَّ اللَّهَ يَكْفِي سَخِيءٌ عَلِيمٌ ﴿٣١﴾  
 وَإِذَا طَلَقْتُمُ النِّسَاءَ فَلْيُنَّ أَجْلَهُنَّ فَلَا تَعْضَلُوهُنَّ أَنْ يَنْكِحْنَ  
 أَزْوَاجَهُنَّ إِذَا تَرَ صَوًّا بَيْنَهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ ذَلِكَ يُوعَظُ بِهِ مَنْ كَانَ  
 مِنْكُمْ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ ذَلِكَ لَكُمْ لَكُمْ وَأَطْهَرُ وَاللَّهُ  
 يَعْلَمُ وَأَنْتُمْ لَا تَعْلَمُونَ ﴿٣٢﴾ وَالْوَالِدَاتُ يُرْضِعْنَ أَوْلَادَهُنَّ  
 حَوْلَيْنِ كَامِلَيْنِ لِمَنْ أَرَادَ أَنْ يُتِمَّ الرَّضَاعَةَ وَعَلَى الْمَوْلُودِ لَهُ رِزْقُهُنَّ  
 وَكِسْوَتُهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ لَا تُكَلَّفُ نَفْسٌ إِلَّا وُسْعَهَا لَا تُضَارَّ  
 وَالِدَةٌ بَوْلِدِهَا وَلَا مَوْلُودٌ لَهُ بِوَالِدِهِ وَعَلَى الْوَارِثِ ذَلِكَ  
 فَإِنْ أَرَادَا فِصَا لَعَنْ تَرَاضٍ مَتْنَهَا وَتَشَاوُرَ فَلَاجِنَا حَاحَ عَلَيْهِمَا وَإِنْ  
 أَرَدْتُمْ أَنْ تَسْتَرْضِعُوهُنَّ أَوْلَادَكُمْ فَلَجِنَا حَاحَ عَلَيْكُمْ إِذَا سَلَّمْتُمْ مَا  
 آتَيْتُمْ بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَوْلُ وَاللَّهُ يَعْلَمُ أَنَّ اللَّهَ بِمَا تَعْمَلُونَ بَصِيرٌ ﴿٣٣﴾


# Ислом динининг асосий оқимлари

وَإِذَا طَلَقْتُمُ النِّسَاءَ فَلْيُنَّ أَجْلَهُنَّ فَأَمْسِكُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ أَوْ  
 سَرَّحُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ وَلَا تُمْسِكُوهُنَّ ضِرَارًا لِيُنْتَدُوا وَمَنْ يَفْعَلْ  
 ذَلِكَ فَقَدْ ظَلَمَ نَفْسَهُ وَلَا تَنْجِدُوا أَيْدِي اللَّهِ هُرُؤًا وَأَذْكُرُوا  
 يَعْمَتَ اللَّهُ عَلَيْكُمْ وَمَا أُنزِلَ عَلَيْكُمْ مِنَ الْكِتَابِ وَالْحِكْمَةِ  
 يَعِظُكُمْ بِهِ وَإِنَّمَا اللَّهُ يَعْلَمُ أَنَّ اللَّهَ يَكْفِي سَخِيءٌ عَلِيمٌ ﴿٣١﴾  
 وَإِذَا طَلَقْتُمُ النِّسَاءَ فَلْيُنَّ أَجْلَهُنَّ فَلَا تَعْضَلُوهُنَّ أَنْ يَنْكِحْنَ  
 أَزْوَاجَهُنَّ إِذَا تَرَ صَوًّا بَيْنَهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ ذَلِكَ يُوعَظُ بِهِ مَنْ كَانَ  
 مِنْكُمْ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ ذَلِكَ لَكُمْ لَكُمْ وَأَطْهَرُ وَاللَّهُ  
 يَعْلَمُ وَأَنْتُمْ لَا تَعْلَمُونَ ﴿٣٢﴾ وَالْوَالِدَاتُ يُرْضِعْنَ أَوْلَادَهُنَّ  
 حَوْلَيْنِ كَامِلَيْنِ لِمَنْ أَرَادَ أَنْ يُتِمَّ الرَّضَاعَةَ وَعَلَى الْمَوْلُودِ لَهُ رِزْقُهُنَّ  
 وَكِسْوَتُهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ لَا تُكَلَّفُ نَفْسٌ إِلَّا وُسْعَهَا لَا تُضَارَّ  
 وَالِدَةٌ بَوْلِدِهَا وَلَا مَوْلُودٌ لَهُ بِوَالِدِهِ وَعَلَى الْوَارِثِ ذَلِكَ  
 فَإِنْ أَرَادَا فِصَا لَعَنْ تَرَاضٍ مَتْنَهَا وَتَشَاوُرَ فَلَاجِنَا حَاحَ عَلَيْهِمَا وَإِنْ  
 أَرَدْتُمْ أَنْ تَسْتَرْضِعُوهُنَّ أَوْلَادَكُمْ فَلَجِنَا حَاحَ عَلَيْكُمْ إِذَا سَلَّمْتُمْ مَا  
 آتَيْتُمْ بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَوْلُ وَاللَّهُ يَعْلَمُ أَنَّ اللَّهَ بِمَا تَعْمَلُونَ بَصِيرٌ ﴿٣٣﴾

## Ханбай ylar

## Суннал ар

## Шияла р





Rivoyat qiliishicha,  
g'azotlardan birida  
asirlar orasida go'dak bola borligi  
ma'lum bo'ldi.  
Asirlar o'lja sifatida taqsimlandi.  
Lekin qancha nido qilinsa,  
ham bolani oluvchi topilmadi.  
Shunda asira ayollardan  
biri kun tig'ida qiynalayotgan  
go'dakka ko'zi tushib, bor kuchi  
bilan u tomon otildi, yaqinlari ham  
ayolniig orqasidan yura boshlashdi.  
Darhol ayol bolani qo'liga olib,  
bag'riga bosdi. Butun gavdasi bilan qaynoq qumga chalqancha yotib, «bolam, bolam»  
deya unga ko'ksini tutdi, sahroiing o'tli hovuridan bolani to'sdi. Bu holatga guvoh bo'lgan  
barcha yig'ladi, keyin ularni xoli qoldirishdi. Payg'ambar alayxissalom bu voqeadan  
xabar topgach, ularning qoshiga keldilar va asxobining raxmdilligidan xursand bo'lib,  
shunday xushxabarni yetkazdilar:

- Bu ayolning bolasiga bo'lgan mehribonligidan xayratga tushyalsizmi?Ha, deyishdi.
- Bu ayol o'g'liga qancha raxmdil bo'lsa, Alloh taolo sizga undanda rahmliroqdir!

Хозирги даврда бутун жахонда ислом дини хакида гоят кўп мунозарали фикрлар баён килинмоқда. Шунинг учун бу мавзу доирасида ислом дини шаклланган тарихий шарт – шароит, унинг ривожига, бунда Мухаммад ибн Абдулохнинг улкан хизматлари, унинг Марказий Осиё минтақасига тарқалиши, бу ердаги цивилизация ривожига, маданиятига таъсири, унинг хозирги даврдаги мавқеи муаммоли тарзда ёритиб берилди. Ислам дини дунёда кенг тарқалган монотеистик динлардан биридир.



Африка китъасидаги Марокаш, Жазоир, Тунис, Ливия, Миср, Сомали мамлакатларининг халклари, хабашистон, харбий Суданда яшовчиларнинг бир кисми, Осиё китъасидаги Арабистон ярим ороли, Иордания, Сурия, Ирок, Эрон, Туркия, Афғонистон, Покистон, Малайзия, Индонезия халклари, Ливан, хиндистон, хитой, ҳамда филлипин ахолисининг бир кисми, Европа кисмида эса Болкон ярим оролида яшайдиган халкларнинг бир кисми ислом динига эътикод килади.



Ахолисининг кўпчилиги мутлок  
муслмонлардан иборат бўлган 39  
мамлакат, хатто ахолисининг ярмини  
муслмонлар ташкил этадиган  
баъзилари хам (Миср, Малайзия 49)  
ўзларини муслмон мамлакатлари деб  
атайдилар. Уларнинг баъзиларида  
(Мавритания Эрон, Покистон, Камар  
ороллари) мамлакатларининг номига  
ислом сўзи кўшиб айтилади. Расмий  
статистика буйича, бир неча  
мамлакатларда ахолининг деярли  
барчаси муслмонлардан иборат. 28  
мамлакатда ислом расман давлат дини  
сифатида тан олинган.

Шунингдек, Марказий Осиё, Кавказорти ва Шимолий Кавказ, Волгабуйи, харбий Сибирь ва бошка худудларда яшовчи ахоли орасида таркалган. хозирда исломга эътикод килувчилар сони йил сайин кўпайиб бормоқда. Айникса, эътикод эркинлиги хакидаги янги конуннинг кабул килиниши, вақтли матбуот сахифаларида, радиоэшиттиришлар ва ойнаи жахон кўрсатувларида дин мавзуидаги чиқишларнинг кўпайиши, махсус газета ва журналларнинг кенг таркалганлиги исломга бўлган эътиборини ошириб юборди. Ислон жахондаги, айникса, Осиё ва Африка китъаси маданиятининг умумий киёфасида мухим из колдирди.

Бунга энг аввало бу худудларда араб тили ва араб ёзувининг кенг таркалганлиги, ислом мафкураси замонида ишлаб чикилган муайян турмуш тарзининг хукмронлиги мусулмонлар ижтимоий хаётининг турли сохалари шариат томонидан идора этилганлиги имкон берган. Шунга карамай махаллий маданий анъаналар йўколмай,

янги ислом йўналишида  
ривожланган ва у кўпинча

кадимий мусулмон анъаналари сифатида кабул килинган. Мусулмонлар маданий мероси масаласи миллий озодлик харакати ва ривожланаётган мамлакатларнинг мустакиллик учун кураши жараёнида асосий масаларидан бирига айланди ва ижобий ахамият касб этди.

## Хўш ислом нима?

Ислом сўзининг лугавий маъносини куйидагича шархлаш мумкин: 1) ихлос, турли сифатлардан саломат бўлиш; 2) сулх ва омонлик; 3) итоат ва буйсиниш.

Исломнинг пайдо бўлиши тахлил этиш тарихий даврнинг хусусиятлари, араб кабилалари ўртасида ҳукмром бўлган ижтимоий - иктисодий муносабатларни ва уларнинг диний гоъвий хаёти билан қискача танишиб чиқишни тақозо этади. Арабистон ярим ороли ноқўлай иқлим шароитига эга бўлган кум сахролардан ва тоғлардан иборат бўлиб, унинг аҳолиси V-VI асарларида кўчманчи чорвачилик билан шугулланар эди.

Ярим оролнинг чексиз сахроларда яшавчи кўчманчи, чорвачилик билан шугулланувчи араб кабилалари - бундан ҳам огир шароитда яшар эдилар. Улар тараккиёт жихатидан анча оркада колган, хали уругчилик, кабилачилик тузумида эдилар. Ярим оролнинг гарбий кисмида јизил денгиз кирёоклари бўйлаб чўзилган ва кадимдан хижоз деб ном олган жойлар бу даврларда бир мунча иктисодий жихатдан ривожланган бўлиб, бу ривожланиш кисми сувли вохалардаги дехкончилик асосан жанубдан шимолга ўтган кадимий карвон йўли билан боглик эди.

Тарихий манбалардаги маълумотларига караганда, VI асир Ямандан Шимолга Сурия, Миср ва фаластинга олиб берилган карвон бўлиб фақат бу даврларнинг ўзларига эмас, балки жанубда Яман оркали хабашистон ва хиндистон, Шимолда Сурия оркали Миср, Византия ва Эроннинг ҳам бир-бири билан боғлайдиган ўз даври учун йирик ва катта иктисодий ахамиятга эга бўлган савдо йўли эди. хижоздаги айрим аҳоли яшайдиган манзиллар, йўл устида жойлашган Макка, Мадина, Тоиф шаҳарлари VI асрда анча ривожланган. Булар шунингдек кўчманчи араб қабилаларининг савдо муносабатларига жалб этувчи марказлар сифатида ҳам хизмат қилар эдилар.

Макка диний марказ ва савдо маркази сифатида Араб қабилалари орасида эътиборли эди. Макка марказида жойлашган Каъба исломда энг «муқаддас» ҳисобланган ва «Оллохнинг уйи» (Байтуллох) саждагоҳ ҳисобланган. Ундаги қора тош (ҳажарл-асвод) ва уч юз олтмиш санам араб қабилалари учун эътиқод маънабаига айланган.

Зиёратга келиш ойлари муқаддас ҳисобланиб, бу вақтлар ичида қабилалар ўртасидаги уруш ва жанжаллар тўхтатилар эди.




V-VI асирларда Маккада қурайш номли араб кабиласи хукмрон бўлиб, курайшларнинг юкори табакалари савдо-сотик билан анча бойиб кетган, бу ерда пул муаммолари, судхурлик кенг ривожланган, шунингдек кул савдоси ва кўролларнинг меҳнатидан фойдаланиш анча кенгайган эди. Бу даврларда Яманни кўлга киритиш учун Византия ва Эрон ўртасида кураш авж олган эди. Яман сосонийлар хукмронлиги остида ўтган даврларда (572-628) Эрон кўрфази оркали хиндистонга бориладиган йўли тез ривожлана бошлади ва шу муносабат билан хижоз оркали ўтган йўл инкирозга учрайди. Бу хол фақат хижоз шаҳарларигина эмас, балки барча араб кабилалари хаётига ҳам жиддий таъсир кўрсатади ва умуман Арабистон буйича ижтимоий-иқтисодий таназулнинг бошланишига сабаб бўлади.

Ижтимоий ҳаёт тақозоси натижасида  
вужудга келган араб кабилалари  
ўртасидаги марказлашишга интилиш  
харакатлари араблар жамиятида IV аср  
охири ва VII аср бошларида юз берган  
жиддий тарихий воқеалар асосида ёритади  
. Бу интилишни ўзида акс эттирилган  
мафкура сифатида ислом дини вужудга  
келди ва марказлаштирилган араб  
давлатининг пайдо бўлиши, кўшни  
амлакатларининг босиб олиниши ва араб  
алифалигининг кенгайиши жараёнида бу  
дин кучли гоявий қурол сифатида хизмат  
килади.

# Мухаммад – ислом пайгамбари.

Ислом динида пайгамбар ҳисобланган Мухаммад мелодий 570 йилда Маккада курайш қабиласининг хошимийлар авлодидан бўлган. Абдуллох ва Омина хонадонида тугилади. Мухаммад ёшлигида етим қолган, аввал бобоси Абу Муталиб, сўнг амакиси Абу Толиб қўлида тарбияланади. Балогатга етгач, савдогарлар қўлида хизмат қилиб 24 ёшда бева бой аёл - Хадичага уйланган ва унинг маблағлари билан мустақил савдогорлик қила бошлаб, жуда қўп давлатларга борган.



Мухаммад 610 йилда 40 га кирганда Маккада  
якка худога эътикод килиш тўғрисида тарғибот  
юрғизган.

У тарғибот бошлаган  
дастлабки йилларда,  
нисбатан жуда оз  
киши (Хадича, Абу Бакир,



Талха, Зубайр, Усмон ва кариндошлари, айрим  
савдогарлар) бу тарғибот изидан борганлар.  
Шунинг билан бирга, ўша даврдаги  
курайишларнинг уммавийлари хонадонига  
мансуб бўлган ва Маккада сиёсий ҳокимият  
тепасида бадавлат зодагонлар унинг  
тарғиботига жиддий қаршилиқ кўрсата  
бошлаган. Маккада ахвол жиддийлашганини  
кўриб Мухаммад Мадинадаги Ауз ва Хазреж  
номли вакиллари билан Мадинага кўчиб  
кетган.



622 йили юз берган бу кўчиш (арабча «хижра») дан мусулмонларнинг хижрий йили хисоби бошланади.


Маккадан кўчиб борганлар ислом тарихида «мухожирлар» (кўчиб келганлар), Мадиналик кабилалардан исломни кабул қилганлар эса «ансорлар» (ёрдамчилар) деб ном олган.

Мухаммад Мадинага келгач ўз мавкеини мустахамлашга ҳаракат қилади ва исломни тарғиб қилишни давом эттиради. Нихоят маккаликлар билан мадиналиклар ўртасида бир хил жанглар бўлган.

Улардан бири Бадр кудуги ёнида хижрий йилининг рамазон ойида (17 ёки 19 кун) бўлади. Иккинчи жанг 625 йил июл-август ойларида ва 626 йили «хандок» жанги номини олган тўқнашувлар ҳам бўлиб ўтди. Ушбу жангларда Мухаммад галаба қозонгандан кейин, Мадинада ўз мавкеини мустахамлаб бу ерда фаол сиёсат олиб боради.

Qur'oni Karim  
 Arabcha  
 <<baland o'qish>>  
 ma'nosini  
 anglatadi.  
 Osmonda  
 saqlanuvchi  
 oliy kitobning  
 nusxasidir.

وَإِذَا طَلَقْتُمُ النِّسَاءَ فَلْيُنَّ أَجَلَهُنَّ فَأَمْسِكُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ أَوْ  
 سَرَخُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ وَلَا تُمْسِكُوهُنَّ ضِرَارًا لِيَعْتَدُوا وَمَنْ يَفْعَلْ  
 ذَلِكَ فَقَدْ ظَلَمَ نَفْسَهُ. وَلَا تَتَّخِذُوا آيَاتِ اللَّهِ هُزُوًا وَأَذْكُرُوا  
 نِعْمَتَ اللَّهِ عَلَيْكُمْ وَمَا أَنْزَلَ عَلَيْكُمْ مِنَ الْكِتَابِ وَالْحِكْمَةِ  
 لِيُعْظِمَ اللَّهُ بِدِينِكُمْ وَاللَّهُ وَاعْلَمُوا أَنَّ اللَّهَ يَكُلُّ شَيْءٍ عَالِمٌ ﴿٦٣﴾  
 وَإِذَا طَلَقْتُمُ النِّسَاءَ فَلْيُنَّ أَجَلَهُنَّ فَلَا تَعْضُلُوهُنَّ أَنْ يَنْكِحْنَ  
 أَزْوَاجَهُنَّ إِذَا تَرَاضُوا بَيْنَهُمْ بِالْمَعْرُوفِ ذَلِكَ يُوعَظُ بِهِ مَنْ كَانَ  
 مِنْكُمْ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ ذَلِكَ لَكُمْ وَأَنْتُمْ وَاللَّهُ  
 يَعْلَمُ وَأَنْتُمْ لَا تَعْلَمُونَ ﴿٦٤﴾ وَالْوَالِدَاتُ يُرْضِعْنَ أَوْلَادَهُنَّ  
 حَوْلَيْنِ كَامِلَيْنِ لِمَنْ أَرَادَ أَنْ يُنَمِّى الرِّضَاعَةَ وَعَلَى الْمَوْلُودِ لَهُ رِزْقُهُنَّ  
 وَكِسْوَتُهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ لَا تُكَلِّفُ نَفْسٌ إِلَّا أَوْسَعَهَا لَا تَضْرَاجُ  
 وَالْوَالِدَةُ لِوَالِدِهَا وَلَا الْمَوْلُودُ لَهُ بِوَالِدِهِ. وَعَلَى الْوَارِثِ مِثْلُ ذَلِكَ  
 فَإِنْ أَرَادَ إِفْصَالًا عَنْ تَرَاضٍ مِنْهُمَا وَتَشَاوُرٍ فَلَا جُنَاحَ عَلَيْهِمَا وَإِنْ  
 أَرَدْتُمْ أَنْ تَسْتَرْضِعُوا أَوْلَادَكُمْ فَلَا جُنَاحَ عَلَيْكُمْ إِذَا سَلَّمْتُمْ مَا  
 آتَيْتُمْ بِالْمَعْرُوفِ وَاللَّهُ وَاعْلَمُوا أَنَّ اللَّهَ بِمَا تَعْمَلُونَ بَصِيرٌ ﴿٦٥﴾



## Сунналар.

Исломнинг кенг тарқалган оқимларидан бўлиб, Осиё ва Африка қитъаларида яшашади. Сунна VII асрнинг иккинчи ярмида Арабистонда пайдо бўлиб, VII – XII асрларда диний- сиёсий курашлардан сўнг халифаликнинг етакчи эътиқодига айланди. Суннийлар қуръони Карим билан бир каторда Сунналарнинг ҳам муқаддаслигини тан олишади. Суннанинг ханафийлик, маликийлик, шафийлик ва ханбалийлик каби тўрт мазхаби бор. Улар ўз номини асосчилари исмидан олишган. Мамлакатимиздаги мусулмонларнинг асосий қисми ханафийлардир. Шимолий Кавказда шафийлар яшашади.

## Шиялар.

Исломнинг яна бир окими Шиялардир. Шиялар арабча гурух, партия маъносини англатади. Шиитлар қуръони Каримнинг илохийлигини эътироф этган холда, унинг оятларини Алига нозил бўлган деб билишади. Шияларнинг имомийлар мазхаби 11 имом бор дейишади. ўн иккинчи имом Мухаммад ал Махди IX аср охирларида гойиб бўлган, аммо у албатта бир куни кайтади ва ер юзида адолат тантана килади. Шиитлар Эрон, Ироқ, Покистон каби мамлакатларда яшашади.

Xristianlik dini  
(I asrda paydo bo'lgan)

Provaslavniy



Katolik



Protestant



*Shunday odamlar borki, ularni Olloh ham rad etadi.*



Iso alayhissalom afsonaviy shoh Dovudning avlodi hisoblanmish duradgor Yusuf oilasida tavallud topdi. Uning tug'ulgan yili aniq emas. Eng ishonarli manbalarga ko'ra Iso alayhissalom tahminan milodning boshlanishidan 4 yil avval hukmronlik qilgan shoh avgust zamonida, Vifleem shahrida dunyoga kelgan.

Isoning tug'ilishi qator samoviy hoddisalar bilan bir vaqtga to'g'ri kelganligi tufayli uni Masih va yahudiylar mamlakatining yangi shohi deb hisoblashgan. Qur'oni Karimda shunday oyat keltiriladi:

<<Eslang Ey Muhammad), Oloh aytgan edi:  
Ey Iso binni Maryam, senga va volidanga bergan nematimni seni-Ruhul-Qudus(Jabroil) bilan quvvatlantirganimda odamlarga beshikda ham balog'atga yetgan holingdagi kabi so'zlaganinigni senga Kitob – xat va hikmat – ilmni,

Tavrot va Injilni bildirganimni va Mening  
iznim- ihtiyorim bilan loydan qush  
timsolini yasaganingni, so'ngra unga  
puflaganingda Mening iznim- ihtiyorim  
bilan

rostakam qushga aylanganini, Mening  
iznim- ihtiyorim bilan ko'r va peslarni  
tuzatganingni, Mening iznim- ihtiyorim  
bilan o'liklarni(tiriltirib, qabrlardan)  
chiqarganingni eslagin!>>  
(Moida surasi, 110-oyat).

Iso alayihissalom o'z ta'limotini ko'proq masalalar orqali bayon etgan. Uning chuqur, ma'nodor va o'ta mukkamal tarzda ifodalangan fikrlarni, har bir iborasi, so'zlari hammani maftun qilar edi. Barcha buyuk zotlar kabi Iso alayihissalomning ham g'animlari bo'lgan. Yaqin shogirdining sotqinligi tufayli xalqni g'alayonga da'vat qilganlikda ayblangan. U Rum hukmdori Pontiy Pillatning farmoni bilan dahshatli va azobli o'lim jazosiga hukm qilingan. Iso alayihissalom tiriklayin xochga mixlab qatl etganlar.

Iso haqiqatdan ham odam bo'lgan, ikki ming yil ilgari Isroil shahrida yashab. Lekin Iso kim bo'lganligi haqida savol to'xtalib o'tganida, qizg'in bahslar boshlanadi. Ko'p dinlar, Iso Masih payg'ambar, ulug' ustoz va taqvodor inson bo'lganligini tan olishadi. Lekin hamma ish shundaki, Muqaddas Kitobda yozilgan - Iso payg'ambardan, ustozdan yoki ilohiy odamdan ham yuqori bo'lgan.

Mashhur masihiy yozuvchilardan biri K. Lyuis, o'zining "Haqiqiy masihiylik" kitobida, quydagicha yozgan: "Men Iso Masih haqida quydagi bema'ni aytganlarni: "Men Iso buyuk payg'ambar bo'lganiga ishonaman, lekin U Xudo bo'lganligiga ishonmayman" deganlarni to'xtalmoqchiman. Bizga bunday deyishni keragi yo'q, ahir har bir oddiy kishi, Iso Masihga o'xshab bir nimani e'lon qilib aytsa, buyuk ilohiy ustoz bo'lib qololmasdi.

Uni odam darajasidagi aqldan ozgan, o'zini pishirilgan tuxum deb, hisoblaydigan, yoki iblisning elchisi deb, qabul qilishgan bo'lar edi. Nimaga ishonishni o'zingiz tanlang - yoki bu odam haqiqatdan ham Xudoning O'g'li bo'lgan (va hozir ham), yoki U aqldan ozgan va bundan ham battarog'i bo'lgan deb, ishonishingiz ham mumkin. Siz Uni ahmoq deb, hisoblashingiz mumkin, Unga tufurib jin deb, hisoblashingiz mumkin, yoki siz Uning oyog'iga yeqilib va Uni Rabbim va Xudovandim deb, nomlashingiz mumkin.

Lekin muruvvatli, U ulug' ustoz - odam bo'lgan deb, bo'lmagan gapni to'qib chiqarishni keragi yo'q, U bizga bunday tanlovni qoldirmagan, bu Uning rejalarida umuman bo'lmagan".

Shunday qilib, Iso O'zini kim deb atagan? Bu masala bo'yicha Muqaddas Kitobda nima deb yozilgan? Avvalo kelinglar Isoning Yuhanno Xushxabari 10:30da aytgan so'zlariga qaraylik: " Men va Otam - birmiz".

Birinchi qarashda bu O'zini Xudoligini e'lon qilayotganga o'xshamasligi mumkin. Lekin ahamiyat bering, Uning aytgan so'zlariga yahudiylarni ta'sirlanishiga : “ Yahudiy din arboblari Unga javoban: “ Seni xayrli ishing uchun emas, balki kufurliging uchun toshbo'ron qilmoqchimiz. Sen odam bo'la turib O'zingni Xudo deyabsan” ( Yuhanno Xushxabari 10:33). Yahudiylar Isoning aytganini tezlikda, O'zini Xudo ekanligini e'lon qilyabti deb, qabul qilishdi.

Shuningdek keyingi misralarda Iso ularni fikrilaridan qaytarmoqchi ham emas va aytmayabti ham: “ Men O’zimni Xudo qilmayabman”-deb. Ya’ni bu shuni ko’rsatadiki, U haqiqatdan ham Xudoligini aytmoqchi bo’lgan: “ Men va Otam -birmiz”-deb. Yana bir matnni masala qilish mumkin -- Yuhanno Xushxabari 8:58: “Iso ularga:- Sizlarga rostini aytay: Ibrohim vujudga kelmasidan oldin Men bor edim”-dedi. Va yana Uning javobiga, yahudiylar uni toshbo’ron qilishmoqchi edi (Yuhanno Xushxabari 8:59).

O'ziga nisbatan "Men bor" degan so'z birikmasini ishlatib, Iso to'g'ri Xudoning eskiahd ismiga dalil keltirdi (Chiqish kitobi 3:14). Faqat, Iso aniq kufurlik qilayotgani uchun, aniqrog'i O'zini Xudo deb, e'lon qilayotgani sabab, Yahudiylarda ,Uni toshbo'ron qilish niyatini tug'dirishi mumkin edi. Yuhanno Xushxabari 1:1da yozilgan: "Kalom - Xudo edi", 1:14da esa - "Kalom inson qiyofasiga kirdi". Bu aniq shuni ko'rsatadiki, Iso tandagi udo.Havoriylardan biri, Toma, Isoga shunday deb, murojaat qildi: "Ey mening Rabbim va Xudoyim!"

( Yuhanno Xushxabari 20:28) - va Iso uni to'g'irlagani ham yo'q. Havoriy Pavlus Uni "... buyuk Xudo va Qutqaruvchimiz Iso Masih..." ( Titusga maktub 2:13) deb izohladi, Havoriy Butrus ham unga qo'shimcha qilbi: ".. Xudoyimiz va Xaloskorimiz Iso Masih" – debi (1-chi Butrus maktubi 1:1). Shuningdek Ota Xudo ham, Iso kimligini guvohlik qilib: " Ey Xudo, Sening taxting doimiy va abadiydir, Podsholiging hassasi - haqqoniyat hassasi" –deb, murojaat qildi( Ibroniylar maktubi 1:8). Eskiabd paytlarida Iso haqida shunday deb, bashorat qilishgan: " Zero bizga chaqaloq tug'ildi - O'g'il berildi bizga : hukmronlik Uning qo'lida va Unga: Ajoyib, Maslahatchi, mastahkam Xudo, mangulik Otasi, dunyoning Hukmroni deb, ism qo'yishadi"

( Ishayo Kitobi 9:6)

Shunday qilib K. Lyuis tasdiqlashi bo'yicha, Isoga ulug' ustoz-odam deb, ishonish varianti ko'zda tutilmagan. Iso aniq va ochiq Xudo deb, nomlangan. Lekin U Xudo bo'lmasa, demak U aldayapti, shuning uchun aniq payg'ambar, ulug' ustoz va ilohiy odam bo'lolmaydi. Shunday qilib, ko'p zamonaviy " olimlar", " haqiqiy tarixiy Iso" , Muqaddas Kitobda yozilganicha, ko'p narsalarni aytmaganini tasdiqlashga urinishyabti. Lekin bizlar kim bo'libmizki, Iso aytganiga nisbatan Xudoning Kalomiga qarshi chiqsak.

Nahotki zamonaviy olimlar, ikkiming yil avval Iso nima deganini yoki demaganini bilishsa, ahir Muqaddas Kitobda guvohlarni soʻzlari yozilgan boʻlsa – Iso Masihning Oʻzi bilan birga yashagan, Unga ergashgan va Undan oʻrganganlarni oʻzlari yozishgan boʻlsa ( Yuhanno Xushxabari 14:26)?

Nima uchun haqiqatdan ham Iso kim degan savol shunchalik ham muhim? Nima uchun bu katta ahamiyatga ega, U Xudomi yoki yoʻqmi? Eng muhim sabab, nima uchun U Xudo boʻlishi kerakligi, agar u Xudo boʻlmaganligida, Uning oʻlimi butun dunyoni gunohini toʻliq toʻlash uchun yetarlicha boʻlmas edi ( 1-chi Yuhanno maktubi 2:2). Faqat Xudoning Oʻzi bunday cheksiz bahoni toʻlayolardi( Rimliklar maktubi 5:8; 2-chi Korinfliklar maktubi 5:21).

Iso bizning qarzimizni to'lash uchun Xudo bo'lishi kerak edi, va o'lish uchun U odam bo'lishi kerak edi.

Shunday qilib, Iso Masihga imon orqali, najotga erishish mumkin! Isoni Xudoligi shuni bildiradiki - U najotga yagona yo'l. Isoni Xudoligi shunga asoski, U e'lon qildi: "Men yo'l, haqiqat va hayotdirman. Mensiz hech kim Otamning oldiga borolmaydi!" (Yuhanno Xushxabari 14:6).

1054 йилга келганда христианликнинг

**православ** ва **католик**

черковига бўлиниши расман тан олинган. Бу бўлиниш Рим империясининг Шарқий ва ғарбий қисмлари орасидаги феодал муносабатларининг тафовутларини ўзида ифода этди ва Рим папаси билан Константинополь патриархи ўртасидаги жами христиан черковлари устидан якка ҳокимлик учун шиддатли курашлар билан боғлиқ бўлди.

Христианликнинг алоҳида ва мустақил ғарбий тармоги Рим католик черкови, яъни умумий, жаҳон Рим черкови деб атала бошлади. Дунёвий ҳокимиятга тобе бўлган Шарқий христианлик грек – кефилик (грекча – бутун дунё) ёки изчил, собитқадам (ортодоксал) христианлик деб атала бошланди. Православие ва католицизм ораларида умумийлик ҳам, бир – биридан фарқланадиган томонлари ҳам бор.

## Протестантизм

гуноҳдан халос бўлишнинг янги асосларини илгари сурди. Исои Масихнинг кишилар гуноҳини ювишга қаратилган ўзини – ўзи қурбон қилишга ишонч, динга ишонувчи барча кишиларнинг руҳоний бўлиши мумкинлигига ишонч, Библиянинг олий нуфўзига ишонч орқали халос бўлиш ана шулар жумласига киради. Шундай қилиб протестанлик художуйликнинг асосий талабини динда одамнинг ташки кўринишидан ички ҳаётига олиб ўтди ва уни ихтиёрий диний ишонч билан боғлади. Протестантчилик Библияга сингишнинг ўзига хос шаклини қарор топтирди, бу билан протестант ислоҳотчилари дастлабки христианликнинг олий мақсадларини, юксак орзуларини қайта тиклаш, уни кейинги давр черковлари томонидан «бузилишлардан» халос қилишга интилдилар.

# Buddizm ta'limoti hayotning 4 haqiqatiga asoslanadi.

Hayot azob-uqubatdan iborat

Azob-uqubatning sabablari bordin.

Azob-uqubattan qutilish mumkin.

Azob-uqubattan qutilishning 8 ta yo'li bordin

To'g'ri tushunish

Tog'ri niyat qilish

O'zini to'g'ri tutish

To'g'ri anglash

To'g'ri harakat qilish

To'g'ri hayot kechirish

To'g'ri fikrlash

To'g'ri meditatsiya

**Buddaviylik  
dini bundan  
salkam  
2600 yil avval  
shimoli-sharqiy  
Hindistonda  
vujudga  
kelgan**



**Budda  
Dunyodagi  
dinlardan  
eng ko'p  
tarqalgan buddiz  
dini asoschisidi**

Budda hindistondagi Shakya qabilasining hukmdorining o'g'li bo'lgan. Budda himolay tog'ining etagida dunyoga kelgan. Uning asl ismi Gautama bo'lgan. Shakya Muni uning laqabi bo'lib, <<shakya qabilasining zohidi>> degan ma'noni anglatadi. Gautama muhtasham qasrda, gullar va dur javohirlar ichida, raqqosalar, musiqachilar ichida yashagan.

Shuning uchun u hayot hamma joyda go'zal degan xulosaga kelgan. Biroq bir kuni qariyani uchratgach keksalik muqarrar ekanligini tushungan. Bemor odamni uchratib, salomatlik omonatigini tushundi va o'lim to'g'risida o'ylay boshladi. Shu tariqa zohidlikni ehtiyor qiladi.

7-yil tarkidunyo-chilikda sargardonlikda, ochlikda yashaydi. Kunlardan bir kun u katta daraxt ostida chodara qurib chuqur o'ygatolganicha o'tirganda mo'jiza ro'y berib, ongtiniqlashadi va donishmandlik sari yuz tutadi.

Shu paytdan boshlab buni Buddha deb atashadi. Buddha sankritcha xotirjam, osayishta, degan ma'noni anglatadi. Buddha Gang daryosi bo'yidagi Banoras shahrida o'z ta'limoti asoslari bo'yicha dars bergan.

Buddaning huzuriga bir talaba kelib :

- Mo'jiza ko'rsatganingdagina senga ishonaman,  
- dedi.

Budda g'amgin jilmaydi-da, unga g'aroyib mo'jiza ko'rsatdi.

Talaba o'zini tutolmaydi hayqirib yubordi.

- O, Budda! Endi men sening rahomaligingda ilm olishga roziman.

Biroq Budda unga eshikni ko'rsatib dedi:

- Endi menga sening keraging yo'q.

Budda shunday degandi: kamchilk va nuqsonlaringni ko'rsatib, seni koyigan donishmandning etagidan mahkam tut. Zero ul zot seni xazinaga elitayotgan yo'l boshchiga o'xshaydi va sen sira kam bo'lmaysan.

Bir sofdil odam Buddani ko'rmoqlik niyatida atrofdagi turfa buyumlarga bir-bir qaradi. Biroq uning qo'llari dona timsollarni tuta olmadi, ko'zlari esa mo'tabar buyumlarni teshib o'tishga ojizlik qildi – u buddani ko'ra olmadi.

Nihoyat, ibotad qilayotganda, o'rgimchak ini tegayotganini sezdi va uni qo'li bilan sidirib tashladi. Shunda g'oyibdan dona – dona ovoz keldi

- Nega mening qo'limni itarayapsan?

Mening nurim seni quchishga ijozat ber.

Song atrof birdan yorishib ketdi. Haligi odam o'zi sidirib tashlagan o'rgimchak ipini qo'liga oldi. Ip har birida Budda siymosi aks ettirilgan qirqta marvarid donasiga aylandi. Marvarid donalarining o'rtasida bir tosh bo'lib: unga <<Jasorat, umidsizlik, shodlik>>, degan so'zlar bitilgandi. Budda muhibi shodlikni tanladi.

Negaki, u shodlikka olib boruvchi yo'lni topgandi.

Budda shogirdlari toliqib qolgan kezlarda ularga kutilmagan savollar berib, tezlik bilan javob qaytarishni soʻrardi. Masalan, gohida oddiy bir buyumni koʻrsatib, uni koʻpi bilan uchta soʻz va kamida yuzta soʻz orqali taʼriflab berishlarini buyurgan. Bazan talabalari bilan birini tanbalaangan eshik oldiga oʻtqazib qoʻyib.

“Eshikni nima bilan ochasan” – deb savol bergan, goho musiqachilarni deraza tagiga tizib, biror qo’shiqni teskari tarzda hirgoya qilishni so’ragan. Ba’zida shogirdlari orasidan o’ta turib, nechta qadam tashlanganini so’rardi. Biror jonivordan yoki tabiat hodisalaridan cho’chigan talabalardan esa o’zlaridagi qo’rquvni yengishni talab qilgan.



Zardushtiylik dini miloddan avvalgi VI-V asrlarda yuzaga kelgan. Bu din Zaratushtira (ba'zi manbalarda Zardusht yoki Zardo'st) nomi bilan bog'liqdir. 589-512 yillarda yashagan ilohiyatchi faylasuf, tabiatshunos va shoirdir.

**Zardo'st, Zaratushtra, Zaroastr-zardushtiylik nomini olgan qadimgi Eron dinining payg'ambari. Zardushtning hayoti taxminan mil.av. VI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Zardushtning tarixiy shaxs ekanligi fanda hali ham tortuvshuvli masala bo'lib qolmaoqda. U Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning eng qadimiy qismi "Got"ni ijod etgan.**

Zardushtiylik o'z ta'limotini Sharqiy Eron va O'rta Osiyoda targ'ib etgan, deb taxmin qilinadi. Sharq rivoyatlariga ko'ra, Zardusht Baqteriyada shoh Vishtaspa davrida yashagan, yangi diniy ta'limotni targ'ib qilgan, Vishatspa birinchi bo'lib uning ta'limotini qabul quldi.

“Avesto”ning keyinroq yozilgan boblarida Zardushtning shaytonlarga qarshi so'zi, mo'jizalar bilangina emas, qurol bilan ham jang qilgan afsonaviy kurashchi sifatida tasvirlangan.

Olimlarning aniqlashicha, jannatdagi hurlar to'g'risidagi rivoyatlar "Avesto" obrazlari orqali (asosida) shakllanadi. Zardushtiylikning hozirgi shakli forsiylik. Hozir Bombay, Gujarot shtatlarida bu dinga e'tiqod qiluvchi 115 mingdan ziyod aholi yashaydi. Eronda ham bor. Zardushtiylikning hozirgacha saqlanib qolgan marosimlaridan koinotning to'rt unsuri - suv, olov, yer, havoni ulug'lash xarakterlidir.

Hozirgi paytlargacha saqlanib qolgan dafn marosimlari o'ziga xos xususiyatlari mavjud: murdalar bir necha past- baland "sukunat minoralari "dahmalar"ga solinadi, u yerda murdalarning go'shtlarini qushlar yeydi; **go'shtdan tozalangan suyaklar minora o'ratsidagi chuqur quduqqa sochib yuboriladi.**

**Bunda “halol” bilan “harom”ning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi. Zardushtiylik ibodatxonalarida mangu olov yonib turadi. Zardushtiylikning asrlar mobaynida mazmun-mohiyati o’zgarib keldi, Arshakiylar va Sosoniylar davrida davlat diniga aylangan.**

Zardushtiylik dinida olov gunohlardan tozalovchi sehrli kuch deb qaraldi.

Zardushtiylik esxatologiyasda Jahon tarixi 12 ming yil davom etadi, shundan 3 - ming yili Ahura Mazdada “oltin asri” bo’lgan, undan so’ng Anxra–Mayniyonning 3 - ming yillik hukmronligi boshlandi, biroq yomonlik abadiy emas , deb ta’kidlanadi.

Zardusht Ahura Mazda tarafdorlariga o'lgandan so'ng rohat-farog'at vada qiladi, ularning dushmanlarini esa do'zahka mahkum qilinib, har xil azoblarga uchraydi, deb tushuntiriladi.

**Olamdagi barcha yaxshiliklarni Ahura Mazda ,  
yomonliklarni – Anxra- Maynyo ifodalaydi.  
Odam bu kurashda oliy kuchlar qo'lidagi  
o'yinchoq emas, tanlash erkinligiga ega  
bo'lgan, o'z faolligi bilan dunyoda adolat  
tantanasi ta'sir eta oladigan shaxslardir.**

“Avesto”ning bir qismi Gotlarda ko’chmanchilik va dehqonchilik o’rtasidagi qarama-qarshilik bayon etiladi, ko’chmanchilikka hamma yovuzliklarni keltirib chiqaradigan hayot tarzi deb qaraladi va u qoralanadi dehqonchilik esa yaxshilik sifatida rag’batlantiriladi.

Zardusht “yolg’onchilik, palidlik va zulmat qoplagan” muhitni tark etib, Sablon tog’iga chiqib ketadi. U 20 yil g’orda meva, giyoh ildizlari, parranda go’shtini tanovul qilib yashadi: o’n yil yakka tangri Ahuramazdoni kashf etish uchun tafakkur ummoniga g’arq bo’ldi, o’n yil Yazdonni madh etuvchi surud-gimnlar yaratdi.

Ayrim tadqiqotchilar “Avesto” tarkibiga kirgan  
“bir million she’r” (Pliniy) xuddi shu davrda  
ijod qilingan, degan xulosaga kelishgan.

Yigirma yillik riyozatdan so’ng kunlardan bir  
kun chashma bo’yida o’tirganida hotifdan  
vahiy keladi:

“Ey, Spitamon farzandi.

Men hamma mo’tabarlardan seni mo’tabbaroq  
qilib yaratdim va seni o’zimga mehribon  
qildim. Xalq huzuriga boradigan vaqt yetdi.

Ana shu vaqtda Zardusht 39 yoshda edi. U vahiy tufayli tafakkur osmonini tark etib, tog'dan tushib, yagona Tangri kashshofi, uning payg'ambari sifatida chorvadorlar va hunarmandlar, savdogaru ziyolilar orasida ko'pxudolilikning zarari, yakka xudolikning afzalligi xususida va'zlar aytdi, da'vatlar qildi, nutq so'zladi. Ko'pxudolikning kasofatini anglab yetganlar, xususan, hunarmandlar unga ko'plab ergasha boshlashdi. Chorvadorlar ham unga qo'shilishdi. Bu yo'lda unga ammavachchasi Madiyunmoh hamroh bo'ldi

Hayoti xavf ostida qolgan Zardusht qahraton qishda 300 tarafdorlari bilan ko'p sarsonliklardan so'ng Balxga boradi, u yerdan Seistonga o'tib, shimoliy Eronga yo'l oladi. Bir necha yil Tabrizu Yazd va boshqa viloyatlarga yurib, o'z g'oyalarning mukammal shakllantirilishi va keng xalq ommasi orasida yoyilishiga erishadi. Zardusht va uning ulamolari oq libos kiyib yurishar ekan. Kunlardan bir kun u 30 kohin bilan Eron shohi Gushtasp qabuliga boribdi. Shoh payg'ambarlik da'vo qilayotgan zardushtdan o'z aqidalarini aniq tushuntirib berishni so'rabdi. Zardusht har ikki olamning yaratuvchisi Yazdoni pokni ta'riflab nutq so'zlabdi, o'zining tangri yuborgan elchiligini uqtiribdi.

Mudhish suiqasd eramizdan oldingi  
554-yilning saratonida sodir  
bo'lgandi. Zardusht 77 yoshda edi.  
Zardusht din peshvosi bo'lish bilan  
birga katta oila boshlig'i ham edi.  
Uning Istavatr, Uruvatr, Xurchitra  
nomli o'g'illari, Frini, Trini va  
Puruchisto nomli qizlari bo'lgan.

Eng muhimi zardusht johiliyat, zulm, qabohat, tabiatparastlik, butparastlik, molparastlik, ashyoparastlikka qarshi kurashib, nisbatan dunyoviy, insoniy, ma'rifiy g'oyalarni o'zida mujassam etgan yakka Tangrini kashf etdi; yangi e'tiqod zaminida yaxshi xulq, yaxshi hatti-harakat va yaxshi amal bilan bog'liq ijodiy mehnat g'oyasi yotardikim, bu bashariyatning barcha zamonlardagi eng oily niyatidir. Zardusht zamonida sharob tayyorlash va sharobxo'rlik, ko'pxotinlilik qat'iy man etilgan edi.

Biz quyoshga sig'inamiz  
Bezoval nurga,  
Uchqur uning tulporlar  
Qachon quyosh nur taratadi,  
Qachon ilitadi quyosh,  
Qoyim turar yuz ming adat  
Mabudalar.  
Talaydirlar baxtni shunda  
mabutlar  
Taqsimlaydir baxtni shunda  
mabutlar.  
Qutlug' Mazda xalq aylagay bu  
zaminga,  
Olamlarga nur yetadir baxsh,

Haqiqatga ru'shdu rivoj.  
Biz Mitraga sig'inamiz ...  
Uni hech kim aldoyolmaydi.  
Hech kim yo'ldan  
chalg'itolmaydi.  
Kulbasiga eltolmaydi uy sohibi,  
Oilaga kiritolmay urug' boshi,  
Qabilaga qabilaning oq soqoli,  
Mamlakatka mamlakatning  
humdori...  
Biz Mitraga sig'inamiz ...  
Ul kim ulug' qasrlarning  
Ustunlarin ko'taradir,  
Mustahkamlar qopqalarin,  
Ul uylarga hadya qilar podalari.

# ЯХУДИЙЛИК



Самар

ка



Вухор



Яхудийлик  
(Иудаизм).

Марка  
зиу  
Осию



Милодий йил ҳисобининг биринчи асрларидан бошлаб Марказий Осиё шаҳарлари Самарканд, Бухорада ўзларининг миллий динлари бўлган иудаизмга эътиқод қилувчи яҳудийлар пайдо бўла бошадилар. Иудаизм миллий дин сифатида милоддан олдинги иккинчи минг йилликнинг охирларида вужудга келган. Қадимги яҳудийлар ва Арабистон ярим оролида яшаган қадимги арабларнинг диний қарашлари, шунингдек, Шумерликлар, Бобилликлар, Финикияликлар, Мисрликлар ва Олд осийлик бошқа Халкларнинг асотирлари, ривоятлари иудаизмнинг диний пойдеворлари бўлиб хизмат қилди.

Библиянинг бошқа қисмлари эса (Қадимги аҳдга тааллуқлиси) худонинг бевосита панд – насихатлари таъсири натижасида яҳудийларнинг бошқа турли пайғамбарлари томонидан ёзилган эмиш. Бироқ ҳамма динларнинг муқаддас китоблари каби Библия ҳам инсоният томонидан яратилгандир. Одатда иудаизм шартли равишда икки даврга: қадимий (қулдорлик даври); милоднинг II асригача бўлган бу даврда Библиянинг қадимий аҳд қисми юзага келган ва XIX асргача давом этган

Ўрта аср, феодал (Раввин – талмуд, анъанавий)  
Даврларга бўлинади. Ана шу даврларда  
диаспорларда (юн. Тарқоқ, фаластиндан  
ташқаридаги яҳудий колонияларининг номи)  
Тавротни Талқин ва қайта талқин этиш натижасида  
иудаизмнинг янги бир муқаддас китоби Талмуд  
(қадимги яҳудий тилда ўрганиш) шаклланган, унда  
иудаизмнинг ақида ва маросимлари батафсил  
ёритилган. XVIII асрнинг охири ва XIX асрнинг  
бошларида иудаизмда янги босқич – ислоҳ қилинган  
иудаизм вужудга келади. Бу даврларда янги буржуа  
шароитига мослашиш мақсадида ақидаларни  
янгилаш ва Талмудда белгиланган бир қатор  
маълум йўл – йўриқлардан, ибодатлардан воз  
кечишлар рўй берди.

Ҳозирги замон иудаизмида ислоҳ қилинган иудаизм билан бир қаторда ортодоксал иудаизм ҳам мавжуддир. Ортодоксал иудаизм Исроилда алоҳида мавқега эга бўлиб, расмий давлат дини Ўрта аср, феодал (Раввин – талмуд, анъанавий) Даврларга бўлинади. Ана шу даврларда диаспорларда (юн. Тарқоқ, фаластиндан ташқаридаги яҳудий колонияларининг номи) Тавротни Талқин ва қайта талқин этиш натижасида иудаизмнинг янги бир муқаддас китоби Талмуд (қадимги яҳудий тилда ўрганиш) шакллانган, унда иудаизмнинг ақида ва маросимлари батафсил ёритилган.

XVIII ва XIX асрларнинг иудаизмда янги босқич – ислоҳ қилинган иудаизм вужудга келади. Бу даврларда янги буржуа шароитига мослашиш мақсадида ақидаларни янгилаш ва Талмудда белгиланган бир қатор маълум йўл – йўриқлардан, ибодатлардан воз кечишлар рўй берди. ҳисобланади. Бунга XX асрда вужудга келган консерватив йўналишдаги иудаизм, унинг идеологлари иудаизм ва сионизм иттифоқининг тарафдорларидир, шуниндек бизнинг асримизнинг 20 – 30 йилларидағарбда реконструкционизм деб ном олган, гуёки шахсий миллий мансублигини белгилайдиган иудаизм «яҳудийлар революциясидир» деб эълон қилинган янги йўналишлар ҳам киради.

Марказий Осиёда яшаётган яҳудий диндорлари орасида асосан ортодоксал шаклдаги иудаизм мавжуд ва улар шартли равишда этник кўринишлар тартибига мувофиқ тўрт хил: Европалик, Бухоро, Грузия, тоғли ёки тат яҳудийларга бўлинади.